



## 2020- yil yanvar-iyul oylari uchun Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent viloyatida jami **3337,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **97,7 %** ni tashkil etdi.




### 2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3,4 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **119,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **54,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **141,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,5 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **138,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **38,5 %**) o'sishidir.




## Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
	01.08.2019- yil	01.08.2020- yil	
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>2643</b>	<b>3373</b>	<b>127,6</b>
Nurafshon sh.	123	163	132,5
Olmaliq sh.	169	200	118,3
Angren sh.	199	256	128,6
Bekobod sh.	137	170	124,1
Ohangaron sh.	83	104	125,3
Chirchiq sh.	212	287	135,4
Yangiyo'l sh.	73	80	109,6
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	71	92	129,6
Ohangaron	57	74	129,8
Bekobod	97	99	102,1
Bo'stonliq	87	118	135,6
Bo'ka	91	96	105,5
Quyi Chirchiq	61	86	141,0
Zangiota	192	223	116,1
Yuqori Chirchiq	154	196	127,3
Qibray	227	329	144,9
Parkent	86	101	117,4
Piskent	63	78	123,8
O'rta Chirchiq	155	217	140,0
Chinoz	77	110	142,9
Yangiyo'l	118	156	132,2
Toshkent	111	138	124,3



## Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.08.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi % da)




**Ma'lumot uchun:** viloyatida soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray (9,8 %), Chirchiq sh. (8,5 %) va Angren sh. (7,6 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **669,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **124,8 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **4.5 %** punktga ko'payib, **20,1 %** ni tashkil etdi.




## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zangiota tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **30,6 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **128,2 %**), Qibray (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **30,0 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **199,8 %**), va O'rta Chirchiq (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **27,9 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **476,5** marta ko'p ) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,0 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,5 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **94,8 %** ni tashkil etgan holda **2071,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **17,9 %** ni tashkil etdi yoki **597,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **86,4 %** ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **71,6** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan **398,7** % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3266,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **920,2** % ni tashkil etdi. Ularning viloyatidagi tutgan ulushi mos ravishda **2,1** % va **97,9** % ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyul oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>3337,9</b>	<b>97,7</b>	<b>100,0</b>
Nurafshon sh.	146,0	100,2	4,4
Olmaliq sh.	138,2	89,5	4,1
Angren sh.	142,3	97,7	4,3
Bekobod sh.	130,0	89,0	3,9
Ohangaron sh.	119,1	96,1	3,6
Chirchiq sh.	171,3	98,5	5,1
Yangiyo'l sh.	81,2	96,1	2,4
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	98,1	99,4	2,9
Ohangaron	94,8	98,6	2,8
Bekobod	95,2	91,7	2,9
Bo'stonliq	149,7	96,6	4,5
Bo'ka	90,9	98,0	2,7
Quyichirchiq	75,2	99,7	2,3
Zangiota	430,2	103,6	12,8
Yuqori Chirchiq	226,4	99,8	6,8
Qibray	302,3	100,7	9,1
Parkent	181,4	94,3	5,4
Piskent	102,2	94,4	3,1
O'rta Chirchiq	145,6	98,9	4,4
Chinoz	96,0	96,1	2,9
Yangiyo'l	124,8	94,5	3,7
Toshkent	197,0	99,3	5,9





## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyul oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

**Zangiota**  
430,2


**2**

**Yuqori Chirchiq**  
226,4

**1**

**Qibray**  
302,3

**3**



### Kichik hajm

(mlrd. so'm)

**Bo'ka**  
90,9

**2**

**Quy Chirchiq**  
75,2

**1**

**Yangiyo'l sh.**  
81,2

**3**





Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70